| Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati .....                                                                                    | 1230 |
| <b>Mahmudov Nurali Komilovich</b>                                                                                                                                            |      |
| Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi .....                                                             | 1241 |
| <b>Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich</b>                                                                                                                                        |      |
| The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination ..... | 1245 |
| <b>Shokhnigorbegim Juraeva</b>                                                                                                                                               |      |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish .....                              | 1252 |
| <b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>                                                                                                                                            |      |
| Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari .....                                                                                       | 1257 |
| <b>Abriev Zoirjon</b>                                                                                                                                                        |      |
| Пути инновационного развития национальной экономики .....                                                                                                                    | 1262 |
| <b>Жураев Тошболта Тухтаевич</b>                                                                                                                                             |      |
| Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati .....                                                                               | 1267 |
| <b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b>                                                                                                                                       |      |
| Application of ifrs in budgetary accounting .....                                                                                                                            | 1272 |
| <b>G. Djambakieva</b>                                                                                                                                                        |      |
| Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida .....                                                                            | 1276 |
| <b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>                                                                                                                                          |      |
| O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili .....                                                                                 | 1281 |
| <b>Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich</b>                                                                                                                                      |      |



# O'ZBEKISTONDA 2024-YIL DAVOMIDA YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNI SOLIQ MA'MURCHILIGI TAHLILI

**Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo'lib, bu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari, Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq, budget siyosati, budget, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

**Abstract:** This article analyzes the foreign experience in implementing tax administration for large taxpayers. As a result of the analysis, proposals and recommendations have been developed to improve the tax legislation of the Republic of Uzbekistan and further enhance tax administration for large taxpayers.

**Key words:** tax, budget policy, budget, tax administration, large taxpayers, foreign experience, tax potential, tax burden, tax rate, tax benefits.

**Аннотация:** В данной статье анализируется зарубежный опыт внедрения налогового администрирования крупных налогоплательщиков. В результате анализа разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию налогового законодательства Республики Узбекистан и налогового администрирования.

**Ключевые слова:** налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, крупные налогоплательщики, зарубежный опыт, налоговый потенциал, налоговая нагрузка, налоговая ставка, налоговые льготы.

## KIRISH

Soliq to'lovchilarni turli xil xususiyatlariga ko'ra toifalarga ajratish, ularning bu xususiyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy nufuzi jihatidan baholagan holda, ularga nisbatan alohida soliq rejimlariga asoslangan ma'murchilikni qo'llash tajribasi dunyo mamlakatlarida sezilarli darajada takomillashib bormoqda. Bunday yondashuvlarning asosiy mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bir tomondan, soliq to'lovchilarning faoliyatini davlatning moliyaviy instrumentlaridan samarali foydalanish orqali davlat moliya siyosatini soddalashtirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, har bir davlatning asosiy fiskal masalasi — ya'ni davlat byudjeti daromadlarini qulay va maksimal darajada shakllantirishga qaratilgan siyosat samaradorligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bu esa, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarni aniqlash, ularning faoliyatini soliqlar vositasida optimal boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yirik soliq to'lovchilarni nazorat qilish va ular bilan ishlash bo'yicha soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari bir qator olimlar tomonidan keng miqyosda ilmiy tadqiq etilgan bo'lib, ushbu yo'nalish dolzarb ilmiy izlanish obyekti sifatida shakllanmoqda.

Jumladan, avstraliyalik olimlar Z. Akhand va P. Grob [1, 2] tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik soliq to'lovchilarni maxsus bo'linmalar tomonidan boshqarish tizimini joriy etishdagi yutuqlar va kamchiliklar tahlil qilingan. M. Ahmed [3] esa o'z tadqiqotida Pokiston tajribasini tahlil qilib, yirik soliq to'lovchilarga nisbatan soliq ma'muriyatchiligiga oid muammolarni ko'rsatib bergan.

Rossiyalik olim A. Yunak [4] yirik soliq to'lovchi tushunchasini belgilovchi normalar, yuridik shaxslarni mazkur toifaga tasniflash mezonlari, soliq nazorati va hisobining o'ziga xos jihatlari qonunchilik darajasida belgilanishi lozimligini asoslab bergan. O. Sitnikova [5] esa Rossiya Federatsiyasi misolida konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchini soliqqa tortish amaliyotidagi mavjud kamchiliklarni fosh etgan.



S. Pepelyaev [6] tadqiqotlarida soliq organlari faoliyatidagi huquqiy va funksional kamchiliklarga baho berilgan. Shu bilan birga, A. Karataev [7, 8], G. Aytxojina [9], M. Belugina [10] kabi tadqiqotchilar yirik soliq to'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-amaliy asosda tadqiq etgan.

L. Goncharenko [11] o'z izlanishlarida yirik soliq to'lovchilar tomonidan transfer narxlardan foydalanish muammolarini yoritgan. K. Novosyolov [12] hamda L. Koroleva [13] esa soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan alohida tuzilmasini joriy etish zaruriyatini ilmiy asoslab bergan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanilgan. Qiyosiy uslub yordamida soliq imtiyozlariga oid ma'lumotlar solishtirib tahlil qilingan hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda mamlakatdagi yirik soliq to'lovchilarni soliqqa tortish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda uning ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq nazorati tadbirlari natijalari:

2024-yilning yanvar–dekabr oylarida 771 ta xo'jalik yurituvchi subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilgan (2023-yilning shu davrida — 327 ta, 2 724,5 mlrd so'm miqdorida), natijada 3 386,4 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha soliqlar hisoblangan.

Shuningdek, 2024-yil dekabr oyida 101 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (2023-yil dekabr oyida — 20 ta, 17,9 mlrd so'm), 131,6 mlrd so'mlik qo'shimcha soliqlar hisoblangan. 2024-yil davomida 119 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilib (2023-yilning shu davrida — 39 ta), natijada 2 304,6 mlrd so'mlik tovar-moddiy boyliklar tafovuti (kamomad yoki ortiqcha) aniqlangan. Tekshiruvlar natijasida 513,1 mlrd so'mlik soliq va moliyaviy jarimalar hisoblangan.

Bundan tashqari, dekabr oyida 8 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilgan (2023-yilning shu oyida — 3 ta), natijada 3,8 mlrd so'mlik mahsulotlar kamomadi aniqlangan. 2024-yil davomida 195 ta soliq auditi va jinoyat ishlari bo'yicha taftish tadbirlari tashkil etilib (2023-yilda — 217 ta, 1 051,7 mlrd so'm), 1 004,5 mlrd so'mlik qo'shimcha soliq hisoblangan. Jumladan, 2024-yil dekabr oyida 12 ta soliq auditi tadbiri o'tkazilib (2023-yilning shu davrida — 32 ta, 59,2 mlrd so'm), 130,7 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha soliq hisoblangan.

O'ta yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq nazorati tadbirlari natijalari:

2024-yil davomida 59 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (2023-yilda — 70 ta, 1 581,6 mlrd so'm, asosiy qismi "O'ztransgaz" hamda "OKMK" hissasiga to'g'ri keladi), 359,7 mlrd so'mlik soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish haqida talabnomalar yuborilgan. Shuningdek, dekabr oyida 6 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib, 75,7 mlrd so'mlik soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish haqida talabnomalar yuborilgan. 2024-yil davomida 9 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilib (2023-yilda — 7 ta), natijada 54,1 mlrd so'mlik mahsulotlar kamomadi aniqlangan. Tekshiruvlar natijasida 17,4 mlrd so'mlik soliq va moliyaviy jarimalar hisoblangan. Dekabr oyida esa o'ta yirik soliq to'lovchilarda sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilmagan va mahsulotlar kamomadi yoki ortiqchaligi holatlari aniqlanmagan. 2024-yil davomida 59 ta soliq auditi tadbiri o'tkazilib (2023-yilda — 71 ta, 621,8 mlrd so'm), natijada 2 249,9 mlrd so'mlik qo'shimcha soliq hisoblangan. Shuningdek, dekabr oyida 8 ta soliq auditi tadbiri tashkil etilib (2023-yilning shu davrida — 9 ta, 32,2 mlrd so'm), 1 830,5 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha soliq hisoblangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha nazorat natijalari:

2024-yilning yanvar–sentabr oylarida nol stavkali QQS qo'llanilishi hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat) larni hisobga olish natijasida hosil bo'lgan 19 641,6 mlrd so'mlik ortiqcha summalarini qaytarish bo'yicha jami 1 822 ta ariza kelib tushgan. Shundan:

624 ta ariza bo'yicha 10 099,2 mlrd so'mga Moliya vazirligiga mablag'larni qaytarish uchun xulosa yuborilgan;

1 198 ta arizada kamchiliklar aniqlangani sababli ular soliq to'lovchilarga qayta ko'rib chiqish uchun yuborilgan.

2024-yil III choragida esa nol stavkali QQS hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha 4 428,8 mlrd so'mlik ortiqcha summalarini qaytarish yuzasidan 218 ta ariza kelib tushgan bo'lib:

94 tasi bo'yicha 2 706,9 mlrd so'mga Moliya vazirligiga xulosa yuborilgan;

124 tasi kamchiliklar aniqlangani sababli qayta ko'rib chiqish uchun soliq to'lovchilarga qaytarilgan.

Shuningdek, yanvar–sentabr oylarida QQS bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasida 101 ta holatda 1 176,9 mlrd so'mlik qayta hisobotlar olinib, tegishli mablag'lar to'liq undirilgan. Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq nazorati va xizmat ko'rsatish tizimi samaradorligi ortib bormoqda. Xususan, bo'lim xodimlari tomonidan



o'tkazilgan tahlillar natijasida 2024-yil sentabr oyida "Sanoat Energetika Guruhi" MCHJ QKdan 52,6 mlrd so'm (QQS bo'yicha), "ANGREN PIPE PLANT" MCHJdan 2,1 mlrd so'm hamda "UZGASTRIDE" AJdan 33 mlrd so'm (aksiz solig'i bo'yicha) aniqlashtirilgan hisobotlar olinib, hisoblangan soliqlar undirib olingan.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha 2024-yil yanvar–dekabr oylarida nol darajali stavka qo'llanilishi hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larni hisobga olish natijasida hosil bo'lgan 23 898,9 mlrd so'mlik ortiqcha summalarni qaytarish bo'yicha jami 2 019 ta ariza kelib tushgan. Shundan 716 ta ariza bo'yicha 12 570,9 mlrd so'mlik ortiqcha summalarni qaytarish uchun Moliya vazirligiga xulosalar yuborilgan. 1 299 ta holatda esa kamchiliklar aniqlangan sababli arizalar qayta ko'rib chiqish uchun soliq to'lovchilarga qaytarilgan. 2024-yil IV choragida nol stavkali QQS hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha hosil bo'lgan 4 257,2 mlrd so'mlik ortiqcha summalarni qaytarish yuzasidan jami 197 ta ariza kelib tushgan. Shundan 90 tasi bo'yicha 2 413,7 mlrd so'mlik ortiqcha summani qaytarish uchun xulosa Moliya vazirligiga yuborilgan, qolgan 103 ta arizada kamchiliklar aniqlanganligi sababli arizalar qayta ko'rib chiqish uchun soliq to'lovchilarga qaytarilgan. 2024-yil yanvar–dekabr oylarida QQS bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasida 135 ta holatda 1 325,6 mlrd so'mlik qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirildi.

Xususan, bo'lim xodimlari tomonidan 2024-yil dekabr oyida o'tkazilgan tahlillar natijasida "Temiryo'linfratuzilma" MCHJdan 89 mlrd so'm (QQS bo'yicha), "Temiryo'linfratuzilma" AJdan 42,2 mlrd so'm hamda "Enter Engineering Pte. Ltd. MTO" DMdan 39,6 mlrd so'm (QQS bo'yicha) aniqlashtirilgan hisobotlar olinib, hisoblangan soliqlar undirilishi ta'minlangan.

Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yuridik shaxslarni aniqlash mezonlari qayta ko'rib chiqilib, 2024-yil 1-iyulda Adliya vazirligida 3172-3-son bilan ro'yxatga olingan. Shu asosda Davlat soliq qo'mitasi buyruqlari bilan jami 957 ta yirik soliq to'lovchi (shundan 60 tasi elektron tijorat asosida faoliyat yuritayotgan chet el yuridik shaxslari va 56 tasi nafaol — tugatilgan yoki boshqa korxonaga qo'shilgan subyektlar) ro'yxatga olindi.

Mazkur yirik soliq to'lovchilarning 691 nafariga Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan kuratorlik asosida xizmatlar ko'rsatilmoqda. Bo'lim uchun 2024-yil yakuni bo'yicha 13 966,1 mlrd so'mlik soliq tushumlari rejasi belgilangan bo'lib, uning 13 225,0 mlrd so'mi yoki 95 foizi bajarilishi ta'minlandi. Yanvar–dekabr oylarida yirik soliq to'lovchilarga birlashtirilgan mas'ul xodimlar tomonidan korxonalar bilan hamkorlikda belgilangan prognoz ijrosi ta'minlandi. Shu bilan birga, byudjetga qo'shimcha mablag'lar jalb etish hamda soliqlar bazasini kengaytirish maqsadida korxonalarning soliq hisobotlari muntazam tahlil qilindi.

2024-yil IV choragida o'tkazilgan tahlillar natijasida 285,6 mlrd so'mlik qayta hisobotlar olinib, mazkur mablag'lar to'liq undirildi. Xususan, oktabr–dekabr oylarida dastlabki tahlillar asosida yirik soliq to'lovchilardan 150,5 mlrd so'mlik qo'shimcha soliqlar aniqlanib, ularning bartaraf etilishi yoki asoslovchi hujjatlarni taqdim etish yuzasidan xabarnomalar yuborildi.

Bundan tashqari, 2024-yil IV choragida Soliq qo'mitasi xodimlari bilan hamkorlikda davlat ulushi mavjud bo'lgan 53 ta yirik soliq to'lovchi korxonaning 2023-yil yakunidagi sof foydasidan 50 foiz miqdorida ajratma va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanishi va byudjetga undirilishi yuzasidan moliyaviy va foyda solig'i hisobotlari tahlil qilindi hamda 2024-yil 10-iyun kuni xabarnomalar yuborildi. Natijada, bugungi kunga qadar 3 187,358 mlrd so'm mablag'ning byudjetga undirilishi ta'minlandi.

Yirik soliq to'lovchi korxonalarga birlashtirilgan mas'ul kuratorlar tomonidan korxona faoliyatida yuzaga kelayotgan soliq masalalarini tezkor hal qilish maqsadida "Telegram" ijtimoiy tarmog'ida maxsus guruhlar tashkil etilgan. Ushbu guruhlar orqali zarur ma'lumotlar tezkor almashilmoqda va soliq to'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatilib kelinmoqda. Bundan tashqari, 2024-yil oktabr–dekabr oylarida 310 tadan ortiq korxonaning tovar-transport yuk xatlarini rasmiylashtirish bo'yicha murojaatlari o'rganilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10-iyul–2019-yildagi PQ-4389-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda Soliq qo'mitasining 25-sentabr–2024-yildagi 302-sonli "YST ma'murchiligi" axborot tizimini ishlab chiqish va sinov tariqasida amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi buyrug'i asosida, 1-oktabr–2024-yildan boshlab bo'lim faoliyati KPI baholash tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Mazkur axborot tizimiga jami 28 nafar soliq xodimi birlashtirilgan bo'lib, ularning har biri faoliyati 26 ta mezon asosida shakllantirilgan 100 ballik samaradorlik ko'rsatkichi orqali baholanmoqda va ushbu baholash tizimi asosida rag'batlantirilmoqda.

2024-yil IV choragida bo'limning o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi 72 ballni (yaxshi) tashkil etgan, shu jumladan:

- oktabr oyida – 71 ball;
- noyabr oyida – 70 ball;
- dekabr oyida – 74 ball.



Baholash mezonlari va ma'muriy kamchiliklarning bartaraf etilishi natijasida, 2024-yil oktabr–dekabr oylarida bo'lim xodimlari tomonidan byudjetga 2 929,7 mlrd so'm qo'shimcha soliq hisoblangan (ixtiyoriy tarzda taqdim etilgan qayta hisobotlar asosida) va mazkur summaning to'liq undirilishi ta'minlangan.

O'ta yirik soliq to'lovchilar bo'yicha jami 150 ta xo'jalik yurituvchi subyekt (shundan 115 ta korxona va 35 ta bank) soliq nazorati ostida bo'lib, ularning faoliyati doimiy ravishda monitoring qilinmoqda. Bo'lim tomonidan 2024-yil aprel–dekabr oylarida belgilangan 78 031,7 mlrd so'mlik soliq tushumlari rejasi 78 678,7 mlrd so'm miqdorida yoki 100,8 % darajada bajarilgan.

Xususan:

II chorakda 16 010,7 mlrd so'm (QQSdan tashqari) reja bajarilib, 16 336,7 mlrd so'm tushum ta'minlangan (102,0 %);

III chorakda 23 360 mlrd so'mlik reja doirasida 24 756 mlrd so'm tushum amalga oshirilib, \*\*105 %\*\*lik ijroga erishilgan.

Bo'lim tomonidan yirik soliq to'lovchilar soliq bazasini kengaytirish maqsadida korxonalar soliq hisobotlari muntazam tahlil etilib, 2024-yil aprel–dekabr oylarida 895 mlrd so'mga qayta hisobotlar olingan va mablag'lar to'liq undirib olingan.

Dastlabki tahlil va aniqlangan holatlar bo'yicha choralar. May oyida, dastlabki tahlil asosida 42 ta soliq to'lovchida 1 255,0 mlrd so'mlik qo'shimcha soliq aniqlangan bo'lib, ularni bartaraf etish yoki asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etish uchun xabarnomalar yuborilgan.

Natijada:

10 ta korxona tomonidan 124,8 mlrd so'mga qayta hisobotlar taqdim etilgan;

1 ta korxona 536,1 mlrd so'mga asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etgan;

303,0 mlrd so'mlik holat to'liq asoslanmaganligi sababli, Soliq kodeksining 140-moddasi 5-bandiga muvofiq, 16-may–2024-yildagi 34/23-27584-sonli xat bilan soliq auditi tayinlash yuzasidan Soliq qo'mitasiga murojaat qilingan.

Iyun oyida, 35 ta soliq to'lovchi bo'yicha 519,6 mlrd so'm miqdorida soliqlar aniqlanib, xabarnomalar yuborilgan. Masalan: "Hududgazta'minot" AJ tomonidan 2023-yil va 2024-yil I chorak uchun taqdim etilgan hisobotlarda:

daromadlar 473,5 mlrd so'mga kamaytirib,  
xarajatlar 441,9 mlrd so'mga oshirib ko'rsatilgan.

Natijada:

137,8 mlrd so'm foyda solig'i,

48,9 mlrd so'm qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) qo'shimcha hisoblangan.

Bu borada 31-may–2024-yilda 34/23-30771-sonli xabarnoma yuborilgan va 71,3 mlrd so'm qayta hisobot olingan. Iyul oyida, dastlabki tahlil natijasida 256 mlrd so'm miqdorida qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirib olingan.

Masalan: "Navoiyuran" DK tomonidan 2024-yil birinchi yarim yillik uchun taqdim etilgan hisobotda daromadlar 4 670 mlrd so'm, xarajatlar 2 530 mlrd so'm etib ko'rsatilgan.

Biroq, II chorak uchun taqdim etilgan foyda solig'i hisobotida xarajatlar 2 819 mlrd so'm etib ko'rsatilgan bo'lib, bu tasdiqlangan xarajat miqdoridan 289 mlrd so'mga (11 %) ortiqcha bo'lgan. Natijada soliq bazasi 159 mlrd so'mga kamaygan.

Mazkur holatga aniqlik kiritish uchun 23-iyul–2024-yilda 34/23-41854-sonli xabarnoma yuborilgan. Korxona tomonidan aniqlashtirilgan hisobot asosida budjetga 104 mlrd so'm soliq hisoblangan. "OKMK" AJga 25-iyul–2024-yilda 34/23-42348-sonli xabarnoma yuborilgan bo'lib, unda aniqlangan 100 mlrd so'm tafovut bartaraf etilib, 90 mlrd so'mlik qayta hisobot taqdim etilgan.

Soliq qo'mitasining tegishli xodimlari bilan hamkorlikda, davlat ulushi mavjud bo'lgan 62 ta o'ta yirik soliq to'lovchi korxonaning 2023-yil yakuni bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratma va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanishi hamda budjetga undirilishi yuzasidan moliyaviy va foyda solig'i hisobotlari tahlil qilinib, 10-iyun–2024-yil kuni ushbu korxonalarga xabarnomalar yuborildi.

Soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosarining 14-iyun–2024-yildagi topshirig'iga muvofiq, qo'mitaning mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tovar-transport yuk xatlarini rasmiylashtirish bo'yicha onlayn seminar o'tkazildi.

Xususan, iyun oyida 100 dan ortiq korxonaning TTY bo'yicha murojaat va savollari o'rganilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Kuratorlar tomonidan korxonalar faoliyatida soliq masalalarida yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor hal etish maqsadida Telegram ijtimoiy tarmog'ida guruhlar tashkil qilinib, zarur axborotlarni o'zaro tezkor almashish tizimi yo'lga qo'yilgan. Natijada, soliq to'lovchilarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

2024-yil davomida tashqi savdo faoliyati quyidagi yo'nalishlarda monitoring qilindi:



### 1. Eksport va importni tahlil qilish orqali qo'shimcha manbalarni aniqlash:

Tashqi manbalardan olingan ma'lumotlarga asosan jami 1 593,9 mlrd so'm qo'shimcha manba aniqlangan, jumladan:

import qilingan xizmatlar (ishlar, royalti) uchun QQS bo'yicha – 509,9 mlrd so'm;

norezidentlarning daromadidan, soliq agenti orqali ushlab qolinadigan foyda solig'i bo'yicha – 1 084,0 mlrd so'm.

### 2. Muddati o'tgan debitor qarzdorliklarni bartaraf etish bo'yicha:

463 ta xo'jalik yurituvchi subyektning 2 125 ta shartnomasi doirasida 2 672,0 mln AQSH dollari miqdoridagi qarzdorlikni bartaraf etish yoki 5 %, 10 %, 35 % stavkalaridagi 6 362,5 mlrd so'm miqdoridagi jarimalarni ixtiyoriy to'lash uchun talabnomalar yuborildi;

185 ta subyektning 524 ta shartnomasi doirasida yuzaga kelgan 1 254,1 mln dollar miqdoridagi muddati o'tgan debitor qarzdorlik bartaraf etildi;

27 ta subyekt tomonidan 1 188,4 mln so'm miqdoridagi jarima ixtiyoriy ravishda to'lab berildi;

iqtisodiy sudlar tomonidan 364,2 mlrd so'm miqdoridagi jarima qo'llash to'g'risida qarorlar chiqarildi.

2024-yil davomida elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalar faoliyati quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilindi:

2022–2023-yillar va 2024-yil yanvar–iyun oylarida ko'rsatilgan elektron xizmatlar qiymati hamda taqdim etilgan QQS hisobotlari solishtirilib, 21 ta kompaniyaga 174,2 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha soliq hisoblanib, xabarnomalar yuborildi;

Respublika hududida QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tmagan 30 ta xorijiy kompaniya aniqlanib, ro'yxatdan o'tish to'g'risida xabarnomalar yuborildi; natijada, 6 ta kompaniya QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tdi;

Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi bilan xorijiy elektron xizmatlar operatorlarini soliqqa tortish bo'yicha muzokaralar o'tkazildi va tajriba almashildi;

Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga qo'shimchalar kiritish yuzasidan Soliq qo'mitasiga takliflar yuborildi;

Mazkur sohaga oid nazorat samaradorligini oshirish maqsadida Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Raqamli iqtisodiyot vazirligiga tegishli takliflar bilan murojaat qilindi.

2024-yil 1-yanvar holatiga soliq qarzi 985,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvar holatiga u 1 259,1 mlrd so'mga yetdi, ya'ni 273,8 mlrd so'mga oshdi. Jumladan:

“Hududgazta'minot” AJ – 226,6 mlrd so'm;

“Epsilon Development Company” MCHJ – 225,3 mlrd so'm;

“O'ztransgaz” AJ – 145,2 mlrd so'm qarzdorlik bilan ajralib turdi.

Soliq qarzlarini undirish doirasida 2024-yil davomida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

29 099 ta talabnoma orqali 61 832,3 mlrd so'mlik qarz undirish choralari qo'llanilib, 26 663 ta talabnoma orqali 54 745,5 mlrd so'm soliq qarzi qisqartirildi;

Qarzdor subyektlarning bank hisob raqamlariga 27 804 ta inkasso topshiriqlari berilib, 2 424,9 mlrd so'm mablag' undirildi;

Soliq kodeksining 114-moddasiga asosan 570 ta subyektga nisbatan 1 170 ta xatlov qarorlari chiqarilib, 3 647,9 mlrd so'mlik mol-mulk aniqlangan. Natijada:

468 ta noturar bino-inshoot;

730 ta avtotransport vositalari xatlandi;

2 350,6 mlrd so'm soliq qarzi undirildi.

114 334 ta mulkni taqiqlash to'g'risida qaror chiqarildi;

Majburiy ijro byurosiga 2 603 ta (3 442,9 mlrd so'm) soliq qarzini undirish qarori yuborilib, MIB hamkorligida 2 324 ta holatda 2 865,0 mlrd so'm soliq qarzi undirildi;

Soliq kodeksining 120-moddasiga asosan 8 ta korxonaning debitorlari hisobidan 123,0 mlrd so'm mablag' undirildi;

9 ta korxonaga moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgani sababli soliq qarzini bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berildi.

Xavfni va transfert narxlarini tahlil qilish bo'limi tomonidan 2024-yil yanvar–dekabr oylarida korxonalar faoliyatiga oid tahlillar asosida kameral soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun “Soliq xavfini kompleks boshqarish” avtomatlashtirilgan tizimining “SRM inspektor” moduliga 284 ta nomzod subyekt ro'yxatga kiritildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 2023–2024-yillarda 42 ta korxona tomonidan import qilingan tovarlarning qiymati bojxona qiymatidan past bahoda olib kirilganligi aniqlanib, farq summasi 2,4 trln so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga, “O'zbekiston Milliy Elektr Tarmoqlari” AJ va “Hududiy Elektr Tarmoqlari” AJ kabi elektr tarmoqlari korxonalarining zarar bilan faoliyat yuritayotgani va ularning soliq tushumlarining kamayish sabablari o'rganildi. Farmatsevtika mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi 82 ta yirik soliq to'lovchi korxonaning iqtisodiy faoliyati



ham atroficha tahlil qilindi. Qurilishi yakunlangan obyektlar bo'yicha mol-mulk solig'ining to'g'ri hisoblanishini o'rganish jarayonida umumiy qiymati 28 mlrd so'm bo'lgan, 11 ta korxonaga tegishli 305 ta obyekt bo'yicha 421 mln so'm miqdoridagi mol-mulk solig'i hisoblanmasdan qolayotganligi xavfi aniqlangan. Sanoat energetika guruhi, "ERIELL" va "ENTER ENGINEERING" doimiy muassasalari faoliyati tahliliga ko'ra, qazib olingan xomashyodan qayta ishlangan mahsulotlarning realizatsiyasi kamaytirib ko'rsatilganligi sababli yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq 2022-yilda 176,2 mlrd so'm va 2023-yilda 277,7 mlrd so'm bo'lishi kerak bo'lgan holda umumiy 453,9 mlrd so'm miqdorida byudjetga kam hisoblangani aniqlangan. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida 2023-yilda bir tonna xomashyoni qayta ishlashdan olingan foyda 240 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning dastlabki 5 oylik davrida xarajatlarning sun'iy oshirib ko'rsatilishi natijasida bu ko'rsatkich 50 ming so'mgacha tushib ketgan, bu esa korxonaning haqiqiy foydasini 233 mlrd so'mga kamaytirib ko'rsatish orqali 35 mlrd so'mlik foyda solig'ining byudjetga kam hisoblanishiga olib kelgan. "ERIELL" va "ENTER ENGINEERING" doimiy muassasalari tomonidan import qilingan tovarlarning faktura qiymatida, ya'ni bozor narxidan past narxda o'zaro aloqador korxonalarga realizatsiya qilinishi natijasida "ERIELL" korxonasida 58 020,0 mln so'm, "ENTER ENGINEERING" korxonasida esa 175 066,7 mln so'mlik qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga hisoblanmasdan qolayotganligi aniqlangan va bu haqdagi ma'lumotlar rahbariyatga taqdim etilgan. Shuningdek, "REVO CHARGE CA" MChJ faoliyati tahlili davomida aniqlanishicha, korxona Rossiyadagi asosiy ta'sischisi "OOO Revo Charge Rus"ga tovarlarni ustama qo'shmasdan, o'z qiymatida reeksport qilgan. Buning natijasida korxona yilni zarar bilan yakunlab, foyda solig'i to'lamagan. Agar 14 foiz ustama qo'llanganda, foyda solig'i bazasi 194 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lar edi, shunda byudjetga 29,1 mlrd so'mlik foyda solig'i to'lanmagan bo'lmas edi. "REVO CHARGE CA" MChJ tomonidan 1,3 trln so'mlik reeksport amalga oshirilganligi sababli, ushbu kompaniya transfert narxlar bo'yicha tekshiruv o'tkazishga nomzod sifatida belgilandi. Shuningdek, "Bekobodsement" AJ, "Uzlogistic" MChJ QK, "O'ztransgaz" AJ va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJlar bo'yicha ham soliq xavfi darajasi asosida tahliliy hisob-kitoblar amalga oshirilib, mazkur subyektlarga nisbatan soliq tekshiruvlarini tayinlash bo'yicha takliflar Soliq qo'mitasi rahbariyatiga taqdim etildi.

Soliq xavfi aniqlangan 6 ta korxonaga xabarnomalar yuborilgan holda, ularning har birida aniqlangan xavfli holatlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli takliflar bildirilgan. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 06-aprel-2017-yildagi 185-son qarorining 3-ilovasi 16-bandiga muvofiq, foydalanish uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish hamda ularni belgilangan tartibda utilizatsiyaga chiqarish bo'yicha tuzilgan komissiya tarkibini yangilash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan rasmiylashtirilgan elektron fakturalarning ayrim kontragent korxonalar tomonidan qabul qilinmaslik holatlari o'rganilib, bunda ayniqsa LUKOIL OVERSEAS SUPPLY TRADING kompaniyasi mahsulot taqsimoti doirasida qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'idan ozod etilganligi, keyingi ishtirokchilarning esa realizatsiyasida ushbu soliqlarga tortilishi sababli, ular tomonidan fakturalarni kirim qilmaslik va realizatsiyada aks ettirmaslik orqali soliqdan qochish sxemasidan foydalanilgan bo'lishi ehtimoli mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida mahsulot tannarxining shakllanishi hisobiga soliq bazasini kengaytirish bo'limi tomonidan mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan holatda sanoat korxonalarida tannarx shakllanishi va xarajatlar tarkibi chuqur tahlil qilinib, joyiga chiqqan holda o'rganish ishlari olib borilgan. Jumladan, respublikada faoliyat yuritayotgan 6 ta issiqlik elektr stansiyasining 2023-yildagi asosiy faoliyatdan tushgan daromadi 21 186 mlrd so'm, tannarx xarajatlari esa 21 016 mlrd so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar miqdori 11 871 mlrd so'm bo'lib, shundan 4 614 mlrd so'mi ustavga kiritilgan ulush hissasiga to'g'ri kelgan, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar esa 12 237 mlrd so'mni tashkil etgan. Bularning natijasida tarmoq umumiy hisobda 169 mlrd so'm zarar bilan faoliyatini yakunlagan. "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ tomonidan 2024-yilning yanvar-avgust oylarida 1 kVt elektr energiyasining o'rtacha sotish narxi 598 so'mni, avgust oyida esa 639 so'mni tashkil etgan bo'lsa, elektr energiyasining o'rtacha tannarxi 934 so'mga teng bo'lgan. Ushbu tannarxning 169 so'mi moliyaviy faoliyatga oid xarajatlardan iborat bo'lib, 129 so'mlik moliyaviy daromadlarni inobatga olgan holda, sotuv narxlari ishlab chiqarish tannarxini qoplamaganligi tufayli 166 so'mlik farq bilan zararli moliyaviy natija yuzaga kelgan. 2024-yilning yarim yilligida xarajatlar hajmining ortishiga bir qator omillar, xususan mazut sarfi (475 mlrd so'm) hamda valyuta kursidagi farqlar natijasida yuzaga kelgan zararlar (2 802 mlrd so'm) sabab bo'lgan. Shu bilan birga, issiqlik elektr stansiyalarida ishlayotgan eski energobloklarda sarflanayotgan tabiiy gaz miqdori yangi o'rnatilgan bug'-gaz qurilmalariga nisbatan ikki baravar ko'proq bo'lgan.

"Navoiy issiqlik elektr stansiyasi" AJ misolida 2023-yilda haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar belgilangan rejadagi xarajatlardan 708 mlrd so'mga ortiq bo'lgan. Jumladan, asosiy vositalarning tarkibiy qismlari, kapital qurilish ishlari uchun yo'naltirilgan xarajatlar 283,5 mlrd so'mni, qurilishi davom etayotgan loyihalar uchun jalb qilingan bank kreditlariga hisoblangan 10,5 mlrd so'm foizlar esa joriy xarajatlar sifatida buxgalteriyada aks ettirilgan. Buning ustiga, korxonani qayta tashkil etish jarayonida ajratib chiqarilgan 3 ta jamiyat tomonidan amalda resurslar sarflanmagan bo'lishiga qaramay, buxgalteriya balansidagi nomuvofiqliklar hisobiga nomoddiy



aktivlar qismida 4 469 mlrd so'm miqdorida "gudvil" yaratilgan va ushbu "gudvil" bo'yicha 2023-yilda 8,7 mlrd so'm, 2024-yil yarim yilligida esa 37,1 mlrd so'm amortizatsiya xarajatlari hisoblangan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yirik soliq to'lovchilarni tekshirish soliq majburiyatlarini bajarish, daromadlarni undirish, shuningdek, adolatli va shaffof soliq tizimini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yirik soliq to'lovchilarning umumiy soliq tushumiga qo'shayotgan hissasini inobatga olgan holda, samarali ijroni ta'minlash hamda soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini minimallashtirish uchun tekshirish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish va kuchaytirish zarur. Ushbu taklif yirik soliq to'lovchilarni tekshirishni kuchaytirishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlarni belgilaydi.

Birinchidan, tekshiruv harakatlarini yuqori soliq xavfi mavjud bo'lgan sohalarga va potentsial nomuvofiqliklarga yo'naltirish uchun xavfga asoslangan yondashuv joriy etilishi lozim. Bu yondashuv soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki soliq qonunchiligiga rioya qilmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan holatlarni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlili, ilg'or texnologiyalar va keng qamrovli xavf baholash modellaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Natijada soliq organlari tekshirish resurslarini samarali va maqsadli taqsimlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, soliq organlari hamda boshqa tegishli davlat organlari, xususan moliya institutlari, bojxona organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar reyestrari o'rtasida uzluksiz ma'lumot almashinuvi va o'zaro hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar almashinuvi soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyati, operatsiyalari va aktivlarini yaxlit ko'rinishda baholash imkonini yaratadi hamda xavflarni aniqlash va maqsadli tekshiruvlarni tashkil etish uchun muhim tahliliy vosita vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash va agressiv soliq rejalashtirish sxemalariga qarshi kurashishda xalqaro soliq organlari bilan hamkorlikni kengaytirish va axborot almashuvini mustahkamlash lozim. Jumladan, transfer narxlarini bo'yicha hujjatlarni o'zaro almashish orqali soliqdan qochish sxemalari aniqlanishi hamda chegaralararo adolatli soliqqa tortish tamoyili ta'minlanishi mumkin.

To'rtinchidan, katta hajmdagi soliq to'lovchilar faoliyatiga oid ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, qoidabuzarlik holatlarini aniqlash hamda potentsial soliq xavflarini baholash uchun ilg'or tahliliy vositalar va texnologik yechimlardan, jumladan, ma'lumotlar qidiruvi, mashinaviy o'rganish (machine learning) va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish lozim. Bunday yondashuv soliq tekshiruvlarining aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda soliq organlariga talablarga javob bermaydigan xatti-harakatlarni erta bosqichda aniqlash va zarur choralarni ko'rish imkonini beradi.

Beshinchidan, yirik soliq to'lovchilar uchun ularning huquq va majburiyatlari, soliq tekshiruv jarayonlari hamda soliq organlaridan kutiladigan talablar bo'yicha aniq va shaffof yo'riqnomalarni taqdim etish zarur. Soliq qonunchiligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va tekshiruv tartib-qoidalarining ravshan izohi soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlaydi, nizolarni kamaytiradi va ixtiyoriy ravishda qonunchilikka rioya etishni rag'batlantiradi.

Oltinchidan, yirik soliq to'lovchilarni ilgari yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni ixtiyoriy tarzda oshkor qilishga undovchi ixtiyoriy oshkor qilish dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bunday dasturlar soliq to'lovchilarga o'z soliq majburiyatlarini to'g'rilash, to'lanmagan soliqlarni qoplash hamda jarima yoki huquqiy oqibatlardan qochish imkonini beradi. Shu orqali yashirin soliq majburiyatlari aniqlanadi va umumiy soliq intizomi mustahkamlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi, 2020. – 640 b.
2. Пепеляев С. Г. Актуальные проблемы законодательства и правоприменительной практики налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Правовые проблемы налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. – М.: Волтерс Клувер, 2006. // Экономические науки. – 2010. – № 69. – С. 153–156.
3. Каратаев А. С. Налоговая политика государства в отношении крупнейших налогоплательщиков // Инновационное развитие экономики. – 2011. – № 2. – С. 23–32.
4. Айтхожина Г. С. Особенности планирования выездных налоговых проверок крупнейших налогоплательщиков // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. – 2011. – № 1. – С. 190–192.
5. Белугина М. В. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: проблемы, пути совершенствования // Инновационное развитие экономики. – 2015. – № 5 (29). – С. 27–30.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>